


AMALIY MASHG'ULOT

Reostat yordamida tok kuchini rostlash

56-
mavzu

Maqsad: reostat yordamida zanjirdagi tok kuchining o'zgarishini o'rganish.

Kerakli asbob va jihozlar: tok manbai, reostat, ampermetr, qarshiligi $20\ \Omega$ bo'lgan rezistor, kalit va ulovchi simlar.



Amaliy mashg'ulotni bajarishdan oldin quyidagi jadvalni daftaringizga chizib oling

Reostat surgichining holatlari	1	2	3	4
Tok kuchi (A)				

Ishni bajarish tartibi

1. Reostatga diqqat bilan qarang va uning surgichi qanday vaziyatda eng katta qarshilikka ega bo'lgan holatini aniqlang.
2. Rasmda tasvirlangan elektr zanjirini yig'ing. Kalitni ochiq qoldiring.
3. Tok manbaini tarmoqqa ulang.
4. Tok manbaining iste'molchilarga kuchlanish beruvchi murvati 8 V holatiga qo'yiladi.
5. Kalitni ulab, ampermetrning ko'rsatishi yozib olinadi. Olingan tok kuchining qiymati jadvalga yoziladi.
6. Kalit uziladi. Surgichni siljitib, reostatning qarshiligi biroz kamaytiriladi.
7. Kalit ulanadi. Ampermetrning ko'rsatishi yozib olinadi. Olingan tok kuchining qiymati jadvalga yoziladi.
8. Reostat surgichi surilib qarshilik kamaytiriladi va natijalar qayd etiladi.
9. O'tkazilgan tajriba natijalari asosida o'z xulosangizni yozing.

